

## LEKSIKOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNDA SO‘ZNING MOHIYATI

Kushkarbekova Marjan Usenovna

Navoiy davlat pedagogika instituti  
Chet tillar fakulteti katta o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada tilshunoslikning asosiy tarmog‘i xisoblangan leksikologiya tushunchasi, uning fanda tutgan o‘rni, leksikografiya, frazeologiya, semasiologiya, semantika, etimologiya, stilistika tushunchalari va leksikologiyada so‘zning mohiyati, tuzilishi haqidagi fikrlar tahlil etilgan.*

**Kalit so‘z:** leksikologiya, til, tilshunoslik, fan, leksikografiya, frazeologiya, semasiologiya, semantika, etimologiya, stilistika.

### ABSTRACT

*This article analyzes the concept of lexicology, which is the main branch of linguistics, its role in science, the concepts of lexicography, phraseology, semantics, etymology, stylistics, and the meaning and structure of the word in lexicology.*

**Keywords:** lexicology, language, linguistics, subject, lexicography, phraseology, semantics, etymology, stylistics.

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье анализируются понятие лексикологии, которая является основной отраслью языкоznания, ее роль в науке, понятия лексикографии, фразеологии, семантики, этимологии, стилистики, а также значение и структура слова в лексикологии.*

**Ключевые слова:** лексикология, язык, языкоznание, предмет, лексикография, фразеология, семантика, этимология, стилистика.

### KIRISH

Ma’lumki, yer yuzida yashovchi dunyo xalqlari xilma – xil tillarda gaplashishadi. Kurrai zaminimizda hammasi bo‘lib taxminan 5621 ta til va sheva mavjud bo‘lib, hozirgacha ulardan 500 tasigina o‘rganilgan xolos<sup>1</sup>. Mana shu o‘rganilgan tillarning barchasi leksikologik jihatdan ham o‘rganiladi. Leksikologiya nima? Leksikologiya (leksika va... logiya) – tilshunoslikning til lug‘at tarkibi, ya’ni muayyan bir tilning leksikasini o‘rganuvchi bo‘lim bo‘lib, uning fandagi vazifasi so‘zni yolg‘iz holda emas, balki boshqa so‘zlar bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Leksikologiya tilshunoslikning leksikografiya, frazeologiya, semasiologiya, yoki

<sup>1</sup>М. Бобоҷонов. Жаҳон тиллари ҳакида энг, энг, энглар. 27.10.2012.

semantika, etimologiya, stilistika hamda so‘z yasalishi haqidagi ta’limot kabi sohalari bilan chambarchas bog‘liq. Leksikologiyada so‘zlarning ma’no jihatdan o‘zaro bog‘langan, ya’ni monosemiya, polisemiya, sinonimiya, antonimiya, soz’ ma’nolarining erkin yoki bog‘liq holda bo‘lishi kabi masalalari ham o‘rganiladi. Leksika muayyan bir tizim sifatida ko‘rliganda, so‘z ma’nolari va tushunchalarning o‘zaro bog‘liq holda bo‘lishi ko‘zda tutiladi.

Leksikologiya lug‘at tarkibining amalda ishlatalishi va taraqqiyoti qonuniyatlarini, so‘zlarning uslubiy jihatdan tasnifiy tamoyillarini ishlab chiqadi. Shuningdek, “so‘zlashuv va adabiy tillarda foydalanish me’yorlarini, professionalizm, dialektizm, arxaizm, neologizm, leksikalashgan so‘z birikmalarini me’yorlashtirish kabi masalalarni tahlil etadi hamda bular haqida muayyan xulosalar chiqaradi”.<sup>2</sup>

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tilning lug‘at tarkibi va uni tashkil etuvchi so‘zlar bir qator umumiy xususiyatlarga egaligi bilan xarakterlanadi. Leksikologiya leksikani xuddi shu umumiy xususiyatlari nuqtai nazaridan o‘rganadi. Bu xususiyatlar quyidagilar:

1. Avalo, lug‘at tarkibini tashkil etuvchi har qanday so‘z ma’noga ega bo‘ladi. Ana shu ma’nosи nuqtai nazaridan so‘zlar o‘ziga xosliklarga ega bo‘ladi. So‘zning ma’nosи (semantikasi) va u bilan bog‘liq masalalar leksikologiyadagi asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Leksikaga oid bu masala bilan leksikologiyaning semasiologiya bo‘limi shug‘ullanadi.

2. Har handay tilning taraqqiyotida uning eng o‘zgaruvchan, eng tez harakatdagи qismi leksikasidir. Til taraqqiyoti jarayonida lug‘at tarkibi yangi – yangi so‘zlar hisobiga boyib borish bilan birga, undagi ayrim so‘zlar eskiradi, shuningdek, iste’moldan chiqib boradi. Demak, lug‘at tarkibi avvaldan o‘zlashtirilib kelingan va hozirda iste’moldagi so‘zlar bilan birga nisbatan yangi so‘zlarga va eskirgan so‘zlarga egaligi bilan ham xarakterlanadi. Leksikologiyada leksikaning ana shu tomoni ham o‘rganiladi.

3. Lug‘at tarkibidagi so‘zlar iste’moldagi darjasи bu nuqtai nazardan umumiylikka yoki chegaralanganlikka egaligi bilan ham o‘zaro farqlanadi. Ma’lum so‘zlar umumxalq iste’molida bo‘lsa (masalan, non, suv, katta, yugurmoq va b.), ayrim so‘zlarning iste’mol doirasi ma’lum jihatdan chegaralangan bo‘ladi. Masalan, dialektal so‘zlar territorial jihatdan chegaralangan bo‘ladi (sas – tovush, istamoq – qidirmoq, bolish – yostiq, eshik – hovli, uy va b.); terminlar ijtimoiy nuqtai nazardan chegaralangan, ya’ni ma’lum kasb – hunar sohasidagi kishilar nutqida

<sup>2</sup> Б. Ўринбоев. Лексикология. <https://qomus.info>

qo'llanish bilan chegaralangan bo'ladi. (masalan, urg'u, leksika, affiks – tilshunoslikka oid terminlar; konus, piramida, kvadrat – geometriyaga oid terminlar; kultivatsiya, barona – qishloq xo'jaligiga oid terminlar; basketbol, gol, nokaut – sportga oid terminlar va hokazo). Leksikologiya lug'at tarkibini shu nuqtai nazaridan ham o'rganadi.

4. Lug'at tarkibidagi so'zlar nutqqa, uslubga bo'lgan munosabatlariga ko'ra ham o'zaro farqlanadilar. Ma'lum so'zlar nutq turlariga, uslubga (stilga) betaraf (neytral) munosabatda bo'lsa (quchoq, bechora, osmon, ichmoq va b.), ayrim so'zlar nutq uslubining ma'lum turiga xos bo'ladi (og'ush – badiiy uslubga xos, boyaqish – oddiy nutqqa xos, samo – poetik uslubga xos, adib – kitobiy uslubga xos va hokazo). Leksikologiyada so'zlarning ana shu xususiyatlari ham o'rganiladi.

5. Har bir so'z tovush qiyofasi va ma'nosiga ega, ya'ni shakl va mazmunga ega. Lug'at tarkibidagi so'zlar ana shu shakl va mazmuni jihatidan turlicha munosabatga ega bo'lishi mumkin. Masalan, chaqqon, epchil, chechan, abjir, chapdast so'zlarining shakli har xil, ma'nosi bir xil (sinonim); ko'k (rang), ko'k (osmon), ko'k (maysa, ko'kat) so'zlarining shakli bir xil, ma'nosi har xil (omonim) va hokazo. Leksikologiyada so'zlar o'zaro ana shunday munosabatlari nuqtai nazaridan ham o'rganiladi<sup>3</sup>. [3. 5.]

So'zlar haqida aytib o'tilgan xususiyatlar tildagi barcha so'zlar uchun taalluqli hisoblanadi. Leksikologiyada ham asosan ana shu tipdagisi so'zlar o'rganiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Leksikologiya leksikani o'rganadi, leksika esa so'zlardan (so'zlar majmuidan) iborat bo'ladi, shunday ekan birinchi navbatda so'zning o'zi haqida, uning mohiyati haqida to'xtab o'tishga to'g'ri keladi. Ayrim ishlarda «asosiy til birligi», «til va nutqning eng muhim elementlaridan biri», «tilning eng kichik asosiy birligi» deb umumiylar tarzda va oddiygina ta'riflanadigan so'z aslida juda murakkab xususiyatga ega. Uch – to'rt og'iz so'z, hatto uch – to'rt jumla bilan ham so'zga to'la ta'rif berib bo'lmaydi. Shu vaqtga qadar lingvistik adabiyotlarda so'zga uning boshqa hodisalardan farqini belgilovchi aniq, mukammal ta'rif yo'qligining boisi ham ana shunda. So'z til birligi sifatida juda murakkab xususiyatga ega ekan, so'zga qandaydir umumiylar yoki aniq ta'rif berishdan ko'ra, uning o'ziga xos tomonlarini, boshqa til birliklaridan farqli belgi – xususiyatlarini yoritish muhimdir. Oddiy nazar tashlashdayoq so'zning tovushdan, tovushlar majmuidan tuzilishi aniq seziladi. Barcha tillarda ham so'z asosan birdan ortiq tovushdan tuziladi. Bir tovushdan iborat so'zlar juda kam miqdorni tashkil etadi

<sup>3</sup> Ўзбекистон ССР ФА Тарих, тилшунослик ва адабиётшунослик бўлими томонидан нашрга тайёрланган. Ўзбек тили лексикологияси. Тошкент. 1981 йил. 5 – бет.

(so‘roq bildiruvchi – «а», achinish, afsuslanish bildiruvchi – «е» so‘zlari). Shuningdek, har qanday so‘zning ma’lum bir ma’no ifodalashi ham shu tilda so‘zlashuvchilar uchun sir emas. Ma’lum bir ma’noga ega bo‘lmagan har qanday tovush yoki tovushlar majmui hech vaqt so‘z bo‘la olmaydi. Har qanday so‘z paydo bo‘lishidayoq o‘z ma’nosi va tovush qiyofasiga (tovush qobig‘iga) ega bo‘ladi. Demak, har qanday so‘z, avvalo, tovush va ma’no birligiga ega bo‘ladi. Bu narsa so‘zning fonetik va semantik tomoni. So‘zning tovush tomoni uning ma’nosini reallashtiruvchi (yuzaga chiqaruvchi)dir. Xuddi shu tovush tomoni (tovush qiyofasi) bilan so‘zning ma’nosi tinglovchiga yetadi, tushuniladi. Demak, u so‘zning ma’nosi uchun, uning reallashuvi uchun xizmat qiladi.

So‘zning ma’nosi ma’lum tovushlar majmuida reallashishi sababli bu ma’noni tovushlar majmui, tovushlarning ma’lum tartibdagi birligi hosil qiladigandek tuyuladi. Boshqacha aytganda, tovushlar «ma’nosi»ning birligi so‘zning ma’nosidan iboratdek bo‘lib ko‘rinadi. Haqiqatda esa bunday emas. Garchi tovushsiz so‘z bo‘lmasa – da, biroq u yoki bu so‘zning mazmuni shu so‘zni tashkil etgan tovushlar «ma’nosi»ning yig‘indisidan kelib chiqmaydi. Tovushlar (fonemalar) ma’noga ega emas. Shuning uchun tovushlarning har qanday majmui ma’no ifodalayvermaydi. Masalan, “*o, d, a, m*” tovushlaridan iborat “*odam*” tovush majmui ma’lum ma’no ifodalagani (so‘z bo‘lgani) holda, shu tovushlarning “*adom*”, “*admo*” yoki “*odma*” majmui hech qanday ma’noga ega emas va ular so‘z ham emas. Xuddi shu fonemalardan tashkil topgan “*omad*” ham ma’noga ega va so‘z hisoblanadi. Lekin u “*odam*” so‘zidan tamomila boshqa so‘z<sup>4</sup>. [4.7.] Agar so‘zning ma’nosi undagi tovushlar ma’nosiga va bu tovushlarning ma’lum tartibda joylashuviga (tartibiga) bog‘liq bo‘lganida, har qanday so‘zning ma’nosini undagi tovushlar va bu tovushlarning tartibi asosida izohlash, shu yo‘l bilan so‘zning ma’no asosini topish mumkin bo‘lar edi. Haqiqatda esa bunday qilib bo‘lmaydi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, har qanday so‘z (tub so‘z) aniq bir tovush qobig‘iga ega bo‘ladi. Bu qobiqdagi tovushlarni, ularning miqdorini, shuniigdek, tartibini kishilar, ya’ni shu tilda so‘zlashuvchilar belgilamaydi. Balki ha bir so‘z ma’lum ma’noni ifodalovchi sifatida o‘z tovush qiyofasi (qobig‘i) bilan yuzaga keladi va shu tovush qiyofasidagina u ma’no ifodalanadi, tushuniladi.

Tovush qobig‘idagi tovush yoki tovushlar miqdori o‘zgartirilsa, shuningdek, tovushlar tartibi o‘zgartirilsa, bu qobiqqa xos ma’no ham va shu qobiqdagi so‘z ham yo‘qoladi yoki o‘zgaradi. (Masalan, osmon so‘zining tovushlarini tovushlar

<sup>4</sup> Ўзбекистон ССР ФА Тарих, тилшунослик ва адабиётшунослик бўлими томонидан нашрга тайёrlанган. Ўзбек тили лексикологияси. Тошкент. 1981 йил. 7 – бет.

miqdorini va tovushlar tartibini o‘zgartirib ko‘ring). To‘g‘ri, so‘zning tovush qobig‘ida o‘zgarish bo‘lsa-da, ma’no saqlanishi, demak, so‘zning o‘zi ham saqlanishi mumkin. Leqin bu hodisa (tovush qobig‘idagi o‘zgarish) “*birdaniga*” (darhol) emas, balki til taraqqiyoti jarayonida yuz bersagina shunday bo‘ladi. Bu hodisa tub so‘zlardagina emas, balki yasama so‘zlarda ham yuz berishi mumkin. Masalan, *evur – o‘gir (aylantir)*, *biragu – birov, iroq – yiroq, yog‘och – og‘och, kiprik – kirpik, qo‘imi – qo‘nshi, magiz – mayiz* va hokazo. So‘zning tovush qobig‘ida bo‘ladigan bunday o‘zgarishlar so‘zning o‘z ma’nosи bilan yashash jarayonida ma’lum qonuniyatlar asosida ro‘y beradi. Shuning uchun ham bu o‘zgarish ma’noning, shu bilan birga so‘zning yo‘qolishiga olib kelmaydi.

So‘z tovush qobig‘ining o‘zgarishi bilan (tovushning sifat yoki miqdoriy o‘zgarishi, tovush tartibining o‘zgarishi bilan) ma’noning o‘zgarishi, yangi so‘z hosil bo‘lishi hodisasi ham bor: *ko‘r – ko‘z, artmoq – arch(i)moq) artmoq – derazani artmoq, stolni artmoq; archi(i)moq: kartoshkani arch (i)moq* va boshqalar<sup>5</sup>. [5.9.] So‘zning ikkinchi muhim belgisi ma’lum ma’noga egaligidir. Lekin so‘zlar ifodalaydigan ma’nolar bir xil emas. Ular eng umumiy xususiyatlari bilan ham turli tipga bo‘linadi. Masalan, ayrim so‘zlar ob’ektiv borliqdagi narsa – hodisa, belgi, harakat kabilarni bildiradi (shu narsa – hodisa, belgi, harakatni ataydi): *bog‘, daryo, ko‘k, baland, o‘qimoq* va hokazo;

Undovlar faqat his – hayajon, buyruq – xitob bildiradi: *oh, voy, bay-bay, balli* va boshqalar;

Yuklama va modal so‘zlar fikrning voqelikka munosabatini bildiradi: *axir, faqat, darvoqe, shubhasiz* va boshqalar;

Ko‘makchi va bog‘lovchilar (*uchun, tufayli, so‘ng, bilan, va...*) faqat grammatik ma’noga ega va hokazo. Lekin, qanday tipdagi ma’no ifodalashlaridan qat’i nazar, ularning hammasi ham so‘z hisoblanadi.

## XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yuqoridaqilardan ma’lum bo‘ladiki, so‘z nihoyatda murakkab xususiyatlarga ega bo‘lgan til birligidir. U o‘zining muhim belgi – xususiyatlari bilan tilshunoslikning maxsus bo‘limlarining o‘rganish ob’ekti bo‘ladi.

<sup>5</sup> Ўзбекистон ССР ФА Тарих, тилшунослик ва адабиётшунослик бўлими томонидан нашрга тайёрланган. Ўзбек тили лексикологияси. Тошкент. 1981 йил. 9 – бет.

## REFERENCES

1. Musajon Bobojonov. Jahon tillari haqida eng, eng, englar. 27.10.2012.  
<https://m.ok.ru>
2. Bozorboy O'rinboyev. Leksikologiya. <https://qomus.info>
3. O'zbekiston SSR FA Tarix, tilshunoslik va adabiyotshunoslik bo'limi tomonidan nashrqa tayyorlangan O'zbek tili leksikologiyasi. Toshkent. 1981 yil.
4. Tursunov U. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. 1965 yil.
5. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1 – jild. Toshkent, 1966 yil.